

XALQARO JINOYAT HISOBLANGAN AGRESSIYA HARAKATINING DOLZARBLIGI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI.

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy

huquqshunoslik fakulteti talabasi

G'ayratova Dilnoza Sherzod qizi

dilnozagayratova4@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda ba'zi qudratli davlatlar tomonidan sodir etilayotgan agressiv harakatlar butun dunyo aholisini larzaga keltirmoqda.Ushbu tajovuzkorlik orqasidan qanchadan-qancha aholi halok bo'ldi.Davlatlarning ushbu bosqinchiligi inson huquqlari himoya qilishga va tinchlikni saqlashga harakat qilayotgan xalqaro tashkilotlarning agressiv davatlarga nisbatan chora ko'rishiga sabab bo'ldi.Ushbu maqolada,agressiya tushunchasi,uning elementlari va tarkibi,uni sodir etgan davlatga qo'llaniladigan jazo,va ushbu jinoyatning bugungi kunda qay darajada dolzarbliji muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Xalqaro jinoyat sudi,Rim Statuti,agressiya jinoyati,inson huquqlari,Millatlar Ligasi Pakti,xalqaro shartnomalar,Kampala tuzatishlari.

Kirish: Oxirgi 100 yil ichida sodir bo'layotgan bir davlatning boshqa davlat siyosiy tuzumiga va uning aholisiga qilinayotgan tajovuzkor xatti-harakatlari xalqaro hamjamiyatning e'tiboridan chetda qolmadi.Va davlatlarning ushbu harakatlari qabul qilinga muhim konvensiyalar,inson huquqlarining prinsiplariga zid ekanligini o'ylab,ushbu jinoyat uchun ham javobgarlik doirasini aniqlash uchun ko'plab konferensiylar tashkillashtirdilar.O'nlab yillar davomida bosqinchilik jinoyatini aniqlashdagi qiyinchiliklarga qaramay, Xalqaro jinoiy sudning Rim Statuti bosqinchilik jinoyatini o'z yurisdiktasiyasiga kiritdi. Rim Statutining 8-moddasi prim 1-qismiga ko'ra, agressiya jinoyati to'liq ochib berilgan. Bosqinchilik harakatini rejalashtirish,tayyorlash va boshlash siyosiy yoki harbiy boshqaruvni samarali amalga oshirish yoki boshqarish uchun lavozimga ega bo'lgan shaxs tomonidan qatl davlatning harakati, o'zining xarakteri, og'irligi va ko'lami bo'yicha ochiq-oydin bo'lgan tajovuzkorlik harakati orqali Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomini buzhish agressiya deb topiladi¹

1974-yil 14-dekabrda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida qabul qilingan qarorda agressiya atamasi "davlat tomonidan qurolli kuchlarni boshqa

¹ <https://www.icc-cpi.int/sites/default/files/RS-Eng.pdf>

davlatning suverenitetiga,hududiy daxlsizligiga yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi BMT Ustaviga xilof tarzda qo'llash "deb ta'riflanadi.²

Umuman olganda, bosqinchilik harakatini sodir etish etakchilik jinoyati bo'lib, uni faqat davlatning bosqinchilik siyosatini shakllantirishga qodir bo'lganlargina amalga oshirishi mumkin.Bosqinchilik jinoyati ba'zan o'z-o'zini mudofaa qilish uchun emas,odatda hududiy foyda olish va bo'ysundirish uchun olib boriladigan harbiy to'qnashuvdir.

BMT Bosh assambleyasi 1974-yil 14-dekabrda qabul qilingan Agressiya tushunchasi'sto'g'risidagi Rezolutsiyaning 3-moddasida sanab ko'rsatish bilan ta'riflanadigan agressiya tushunchasi mavjud.Zikr etilgan harakatlar,urush e'lon qilingan –qilinmaganidan qat'i nazar,2-moddani inobatga olib,uning qoidalariga mutanosib ravishda agressiya harakati deb baholanadi.Quyidagi sanalgan harakatlar aggressiv harakatlardir.

1).Davlat qurolli kuchlarining boshqa davlat hududiga bostirib kirishi yoki qancha muddatga cho'zilganligidan qat'i nazar,har qanday bosib olish,mazkur bosqinchilik oqibati sifatida yoki boshqa davlatga uning biror-bir hududiga qarshi kuch ishlatish bilan sodir etilgan har qanday harakat;

2).davlat qurolli kuchlarining boshqa davlat hududini bomba bilan portlatishi yoki davlatning har qanday qurolni boshqa davlatlarga qarshi ishlatilishi;

3).davlat portlari yoki qirg'oqlarining boshqa davlat qurolli kuchlari tomonidan to'sib qo'yilishi;

4).Davlat qurolli kuchlarining boshqa davlatga tegishli quruqlikdagi ,suvdagi,havodagi kuchlariga yoki havo flotiga bostirib kirishi;

5).Boshqa davlat hududidagi bir davlatning qurolli kuchlarini mazkur davlat bilan tuzilgan bitim shartlarini buzib qo'llash yoki har qanday shakldagi mazkur qurolli kuchlarning bitimi harakati to'xtatilishidan so'ng ham ushbu davlat hududida saqlashining davom etishi;

6).Davlatning boshqa davlat ixtiyoriga topshirib qo'yilgan hududida mazkur davlat tomonidan boshqa uchinchi davlatga agressiya sodir etishga yo'l qo'ygan harakatlari;

7).Davlat yoki uning nomidan qurolli kuchlarni,guruhlarni va nomuntazam kuchlar yoki yollanganlarni yuborish.³

Yuqorida sanab o'tilgan harakatlar bosqinchilik harakatlaridir va ular Rim Statutining yurisdiksiyasiga tegishlidir. Professor Noah Weisbordning fikricha,Agressiya jinoyati Xalqaro jinoyat sudi yurisdiksiyasi ostidagi to'rtta asosiy

²Xalqaro jinoyat huquqi. Umarxanova D.SH., X.R.Ochilov. 2019..pdf

³ Xalqaro jinoyat huquqi. Umarxanova D.SH., X.R.Ochilov. 2019..pdf

xalqaro jinoyatlardan biridir,qaysiki u noqonuniy urush uchun shaxsiy javobgarlikni o'z ichiga oladi.⁴

Xalqaro miqyosda tobora kuchayib borayotgan tajovuz va zo'ravonlik davrida xalqaro ahamiyatga ega og'ir jinoyatlar sodir etilishining oldini olish uchun ,sodir etayotgan davlatlarning jazosiz qolishiga chek qo'yish uchun Xalqaro jinoyat sudining Rim statutiga agressiya jinoyati kiritildi. Agressiya jinoyati davlatlarning boshqa davlat hududiga bostirib kirishi,noqonuniy daryo va qirg'oqlarini egallab olishi,ikki davlat o'rtasida imzolangan shartnomalarni buzib,qurolli kuchlari bilan hujum qilishi,boshqa davlat hududini bomba bilan portlatishi ka;bi harakatlaridir. Rim Statuti doirasida agressiya jinoyati uchun davlatlar javob beradi,Shuni aytishimiz kerakki,Agressiya jinoyatining Rim Statutiga kiritilishi Xalqaro jinoyat huquqining muhim qadami hisoblanib,hozirgi zamonda sodir bo'layotgan urushlar uchun dolzarbligini anglatadi.

Agressiya jinoyatiga qarshi kurashish uchun harakatlar tarixiga to'xtaladigan bo'lsak,Birinchi jahon urishi,Ikkinci jahon urishi va undan keyin 1900-yillar davomida sodir bo'lgan davlatlarning tajovuzkor harakatlari sababli agressiya jinoyatini Xalqaro sud yurisdiksiyasiga kiritish takliflari ko'paydi. XX asrning boshlarigacha davlatlarning bir-birini hududiga bostirib kirishi,o'z davlatiga qo'shib olishi odatiy holat bo'lgan.1919-yilga kelib,Millatlar Ligasi Paktiga o'zgartirishlar kiritilib, unga a'zo davlatlar o'rtasida imzolangan shartnomaga ko'ra,davlatlarning suvereniteti,hududiy yaxlitligi,boshqaruvi,siyosati hurmat qilinishini va saqlab qolish majburiyatini oldilar. 1928-yilgi Kellog-Briand Paktiga ko'ra, bir davlat qurolli kuchlari bilan boshqa davlatga bostirib kirishi ta'qiqlandi.

Ikkinci Jahon urishidan keyin davlatlar tomonidan kuch ishlatishni ta'qiqlash Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining tegishli moddasida tasdiqlandi.U har qanday davlatning hududiy yaxlitligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch ishlatishni yoki tahdid qilishni nazarda tutadi.

Yuqorida aytib o'tgan qoidalarimizning barchasi davlatning hatti-harakati bilan bog'liq.Shuning uchun davlatlar qonunbuzarliklari uchun javobgarlikka tortiladilar.Agressiya birinchi marta Nyurenbergdagi Xalqaro Harbiy Tribunal Nizomida xalqaro huquq bo'yicha individual jinoiy javobgarlikka olib keladigan xalqaro jinoyat sifatida tan olingan.

Agressiya xalqaro jinoyat debtan olinishi uchun Rim Statuti kuchga kirganidan 7 yil o'tgach,123-moddaga muvofiq o'zgartirishlar,shu jumladan bosqinchilik jinoyati ta'rifini ko'rib chiqish uchun konferensiya otkazildi. Ushbu konferensiya 2010-yil 31-maydan 11-iyungacha Ugandaning Kampala shahrida bo'lib o'tdi.Kampaladagi tuzatishlar ularni qabul qilgan ishtirokchi-davlatlar uchun ratifikatsiya yorlig'i yoki

⁴ N. Weisbord, 'Conceptualizing Aggression', 20 Duke Journal of Comparative and International Law (2009) 1.

qabul qilish to'g'risidagi hujjat saqlashga topshirilganidan bir yil o'tgach kuchga kirdi. Shuni ham aytishimiz kerakki,Kampaladagi konferensiyyada agressiyaning kuchga kirish tartibi,ICC ning yurisdiksiyasini amalga oshirish shartlari va BMT ning Xavfsizlik Kengashi roli asosiy masala sifatida ko'tarilib,muhokama qilingan. 2017-yildan boshlab esa,ishtirokchi-davlatlar Assambleyasining uchdan ikki qismi dan iborat ko'pchilik ovozi bilan qaror qabul qilinib,Xalqaro jinoyat sudiga ga bosqinchilik jinoyati ustidan yurisdiksiyani amalga oshirishga ruxsat berdi.⁵

Agressiya jinoyatini ta'rifini,uning tushunchasi va qanday harakatlar agressiya jinoyati deb topilishini o'rganib, amaldagi ta'rifga ko'ra,agressiya jinoyati uchun faqat davlat kuchlarini tajovuzkor harakatlarga jalb qilish uchun yetarli vakolatga ega bo'lgan davlat rahbarlari va davlat amaldorlari javobgarlikka tortilishlari mumkin. Shunday qilib ko'rishimiz mumkinki, **Kreb va Von Holtzendorff** ta'kidlagandek,1990-yillardan beri tashkil etilgan xalqaro yoki xalqaro jinoiy tribunallar tajovuz jinoyatini o'z ichiga olgan jinoyatlarning aniq holatlarini ko'rib chiqish va davlatlarning strategik manfaatlariga kata ta'sir ko'rsatdi.⁶

Yuqoridagilardan kelib chiqib,sud jarayonlari tajovuz doirasini jinoiy huquqbazarlik sifatida aniqlashga yordam berdi,uning to'rtta zarur elementi bor. Bular: 1). Davlatning bosqinchilik harakati;

- 2). Rahbarlik talabini qondirish uchun yetarli vakolat;
- 3).tajovuzkor harakatni rejalshtirish,tayyorlash,boshlash yoki amalga oshirishda ishtirok etish;
- 4).ma'lum bir ayblanuvchini muayyan jinoyatda ayblastish uchun qonuniy ravishda talab qilinadigan ruhiy holati-mens rea.⁷

Boshqinchilik harakatining tarkibiga qaraydigan bo'lsak,ushbu jinoyatning **subyekti-siyosiy** mavqega ega,rahbarlik qila oladigan vakolati bor,davlat amaldorlari,harbiy raxbarlar yoki davlat rahbari bo'lishi mumkin.

Obyekti esa,tajovuz harakati qaratilgan davlatning siyosiy mustaqilligi,hududiy yaxlitsizligi va davlat tuzumidir.

Bosqinchilik jinoyatini Rim Statutiga kiritish nafaqat bosqinchilik harakatlari nima ekanligini va qaysilarini jinoiy javobgarlikka totirsh kerakligi to'g'risidagi kelishuvga erishishni,balki jinoyatning xulq-atvorini,ushbu jinoyatni tashkillashtirish bo'yicha ham kelishuvni talab qilgan. Unga ko'ra,agressiyani tashkillashtirishga,uni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yordam bergen davlatlar ham Xalqaro jinoyat sudi doirasida javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgan.

Yaqin yillarda o'tkazilgan Nyu-Yorkdagi 16-sonli ishtirokchi-davlatlarning Assambleyasini Xalqaro Jinoyat Sudining yurisdiksiyasini aagressiv urushni boshlagan

⁵ www.internationalcrimesdatabase.org (<https://www.internationalcrimesdatabase.org/Crimes/CrimeOfAggression>)

⁶ Kreß & Von Holtzendorff, supra note 20, at 1181

⁷ https://en.wikipedia.org/wiki/Crime_of_aggression

va boshlayotgan yetakchilarga nisbatan faollashtirish bo'yicha kelishuv imzoladilar."Ushbu tarixiy faollik bilan Nyurenberg va Tokio tribunalidan keyingi ikki urushdan keyin birinchi marotaba xalqaro sud sud jarayonida agressiya jinoyati uchun yakka tartibdagi rahbarlarni aybdor deb bilish mumkin",-dedi **ICC Koalitsiyasini tashkil etgan Uilyam Peys.**

Ushbu yig'ilishning asosiy masalalaridan biri Xalqaro jinoyat sudi bilan hamkorlik va hamkorlik qilmaslik masalasidir." Biz davlatlarni Xalqaro jinoyat sudi bilan hamkorlikni kuchaytirishga,sud tizimlarini bir-birini to'ldirishga ko'maklashish,Xalqaro jinoyat sudi adolatini ta'minlash uchun ishlaydigan fuqarolik jamiyati vakillarini himoya qilish va ularni himoya qilish uchun zarur choralarni ko'rishga da'vat etamiz."-dedi **Andre Kito,ICC uchun DRC koalitsiyasi prezidenti.**⁸

Ko'rishimiz mumkinki,hozirgi zamonda agressiya jinoyati,uni tashkil etadigan harakatlar ba'zi davlatlar tomonidan sodir etilmoqda. Bunga misol qilib,Ukraina va Rossiya mojarosi,Isroil va Falastin muammosini keltirishimiz mumkin.

Ko'rishimiz mumkinki Rossianing Ukrainaga keng miqyosli bosqinini boshlaganiga ikki yil bo'ldi. Bu agressiv harakat aktini BMTga a'zo bo'lgan ko'plab davlatlar qoradilar.Shundan beri bu tajovuzda ayblangan shaxslarni javobgarlikka tortish uchun Xalqaro jinoyat sudi harakatlar amalga oshirmoqda. Ukraina va Rossiya o'rtasidagi mojarodan keyin ko'rindiki,Xalqaro jinoyat sudining yurisdiksiya rejimida sezilarli darajada bo'shliqlar bor ekanligi aniqlandi.

Muammo shundaki,Xalqaro jinoat sudining yurisdiksiyasi ,Rim statutini ratifikatsiya qilgan va unga qo'shilgan davlatlar uchun amalda bo'ladi. Ukraina masalasi bo'yicha esa,Xalqaro jinoiy sud yurisdiksiyani amalga oshira olmaydi,Chunki Rossiya hamda Ukraina ham Rim statutining ishtirokchisi emas.Shuningdek,ahamiyatli tarafi Rossiya BMT Xavfsizlik Kengashining har qanday qaroriga veto qo'yish huquqiga ega davlatdir. Xalqaro jinoyat sudi Rossiya hukumatining rahbariga qarshi ayblovlar e'lon qildi,ammo hukumat rahbarini to'g'ridan to'g'ri hibsga ololmaydilar. Chunki Rossiya Tashqi ishlar vazirining matbuot kotibi Mariya Zaxarova :"Xalqaro jinoyat sudi qarorlari mamlakatimiz uchun,jumladan,huquqiy nuqtai nazardan ham hech qanday ma'noga ega emas", -deydi,o'z nutqida.Shuningdek,hozirgi kunda BMT oldingi o'z qudratini yo'qotib,davlatlarning noqonuniy xatti-harakatiga o'z ta'sirini ko'rsata olmayotganini ko'rishimiz mumkin.Aslida,BMT tuzilishining asosiy vazifasi Uchinchi jahon urishi boshlanmasligini ta'minlash va davlatlarning agressiv xatti-harakatlarini ta'minlash edi.

Yuqorida sanab o'tganlarimiz agressiya harakatining ta'rifi,uning sodir bo'lish darajasi va sodir etilganda ko'rildigan jazolari bo'yicha yanada isloh qilinishini talab qiladi.

⁸ <https://worldbeyondwar.org/uz/historic-activation-jurisdiction-crime-aggression-international-criminal-court/>

Kumpalada kiritilgan o'zgarishlar yana qayta ko'rib chiqilib, qo'shimcha normalar kiritilishi zarur. Yangi urushlar ko'paymasligini oldini olish uchun Rim Statutiga a'zo davlatlar agressiya jinoyatini ahamiyatsiz bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik uchun uni aniqlashni, unga qarshi kurashishni yangi va samarali usullarini ko'rib chiqishlari zarur. Agressiya jinoyati xalqaro jinoyatlardan biri bo'lib, bir davlat tomonidan sodir etilib, boshqa davlatning hududiy yaxlitligiga, uning siyosiy boshqaruviga va aholisiga jiddiy zarba berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xalqaro jinoyat sudining Rim Statuti
2. Xalqaro jinoyat huquqi. Umaranova D.SH., X.R.Ochilov. 2019..pdf
3. N. Weisbord, 'Conceptualizing Aggression', 20 Duke Journal of Comparative and International Law (2009) 1.
4. www.internationalcrimesdatabase.org
(<https://www.internationalcrimesdatabase.org/Crimes/CrimeOfAggression>)
5. Kreß & Von Holtendorff, supra note 20, at 1181
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Crime_of_aggression
7. <https://worldbeyondwar.org/uz/historic-activation-jurisdiction-crime-aggression-international-criminal-court/>
8. <https://www.coalitionfortheicc.org/explore/icc-crimes/crime-aggression>